

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
Qarshi rektori
O.Sh.Bazarov
2024-yil “23” avgust

Ro'yxatga olindi:
№ 01/01/002
2024-yil “23” avgust

NEFT VA GAZ SANOATI IXTISOSLIGIGA KIRISH
O'QUV DASTURI

- Bilimi sohalari:** 700 000 - Muhandislik, ishlov berish va quritish sohalari
- Ta'lim sohalari:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta'lim yo'nalishlari:** 60720400 – Texnologik mashinalar va jihozlar

Fan/modul kodi NGSIK1106	O'quv yili 2024-2025	Semestr(lar) 1	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Hafta dagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1.	NEFT VA GAZ SANOATI IXTISOSLIGIGA KIRISH	90	180
2.	Fanning mazmuni 2.1. Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari. Fanni o'qitishdan maqsad - neft va gazning xalq xo'jaligida tutgan o'rni, hosil bo'lishi va fizik-kimyoviy tavsiflari, uglevodrodli konlarning turlari; neft-gaz konlarini izlash va razvedkasi, neft-gaz quduqlarini burg'ilash, neft-gazni dastlabki tayyorlash va qayta ishlash texnologiyasi va unda qo'llaniladigan asosiy va yordamchi uskunalarning tuzilishi, sinflanishi, ishlash prinsipi, konstruksiyalari va asosiy texnik ko'rsatkichlari to'g'risida talabalarga boshlang'ich ma'lumotlar berish orqali ularning bilimlarini shakllantirish. Fanning vazifasi - talabalarining neft-gazning paydo bo'lishi, tarkibi, asosiy xossalari; neft-gazni qidirish va razvedka qilish, quduqlarni burg'ilash va neft-gazni qazib olish hamda qayta ishlash usullari va asosiy jihozlarni o'rganishlari natijasida ularda keyingi ta'lim olish jarayonida boshqa fanlarni o'zlashtirishlari uchun ko'nikmalar hosil qilish. 2.2. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibi mavzulari: 1- Modul. Neft va gaz sanoatining rivojlanish tarixi va istiqbollari. Neft va gaz geologiyasi to'g'risida tushunchalar 1 - Mavzu. Kirish. O'zbekistonda neft va gaz sanoatining vujudga kelish tarixi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. Dunyoda va respublikamizda neft va sanoatining rivojlanish tarixi va istiqbollari. Gazkimyo sanoatining paydo bo'lishi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan neft va gaz sohasi korxonlari to'g'risida ma'lumot. Neft va gaz sohasini rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. 2 - Mavzu. Neft va gazning yer qatnashida joylashuvi. Yerning tuzilishi, tashqi qattiq qobiqlari va tashqi litosfera qismlari shakllari, o'lchamlari va strukturalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Yer qatnashida neft va gazning joylashuvi. Geologik jarayonlar va ularning energiyalarining asosiy manbalari. 3 - Mavzu. Neft va gazning tarkibi va xossalari. Neftning tarkibi. Neftning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Gazning tarkibi. Gazning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Gaz kondensati. Gazning fazaviy o'zgarishlari. Gaz gidratlari, ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari. 4 - Mavzu. Tog' jinslari to'g'risida umumiy tushunchalar. Mineral va tog' jinslari haqida umumiy tasavvurlar. Tog' jinslarining paydo bo'lishi va sinflanishi. Geologik jismlar va ularning tasvirlanishi. Geologik xaritalar va qirgimlar. Neft va gaz konlari hosil bo'lishi. Migratsiya. Tabiiy		

rezervuarlar. Tutqichlar, uyumlarning hosil bo'lishi. 5 - Mavzu. O'zbekistonning asosiy neftgazli hududlari, neft va gaz konlari. O'zbekistonning asosiy neftgazli hududlari. Resurslar, zahiralari va ularning tashiflari. Qidiruv-razvedka ishlari metodlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Neft, va gaz konlarini ishlatishning o'ziga xos xususiyatlari. 2 - Modul. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash texnologiyalari va jihozlari. 6 - Mavzu. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash to'g'risida umumiy tushunchalar va burg'ilash quurilmalari tasnifi. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash tarixi. Quduqlarni burg'ilash jarayoni va texnologiyasi. Quduqlarning turlari. Quduqlarning konstruksiyasi. Mustahkamlash tizimlari vazifasi. Burg'ilash quurilmalari tasnifi. Burg'ilash eritmalari. 7 - Mavzu. Burg'ilash quurilmalari asosiy mashinalari va mexanizmlari. Burg'ilash quurilmalarining tasnifi va asosiy parametrlari. Burg'ilash minoralari. Rotor. Ko'tarish mexanizmlari. Tal arqonlari. Kronbloklar, kryuklar, kryukbloklar, arqonni mahkamlash uchun quurilmalar. Burg'ilash lebyockalari. Burg'ilash nasoslari. Vertlyuglar. Sirkulyatsion tizim. O'tqinga qarshi jamlanma. Burg'ilar, ularning turlari va qo'llanishi. Ko'tarib-tushirish operatsiyasi mexanizmlari tarkibi, joylashuvi va tuzilishi sxemalari. 8 - Mavzu. Tik, qiya, gorizont va ko'p to'pali quduqlarni burg'ilash. Tik, qiya, gorizont va ko'p to'pali quduqlarni burg'ilashning o'ziga xos xususiyatlari. Qiya va gorizont quduqlarni burg'ilash tarixi. Qiya va gorizont quduqlarni burg'ilash texnologiyasi va texnikasi. Gorizont quduq stvolini burg'ilash. Qiya quduqlarni burg'ilashning maqsadi. Qiya quduqlarni turbinali og'dirgich bilan egrilantirish. 3 - Modul. Neft-gaz qazib olish va dastlabki tayyorlash texnologiyasi va uskunalari 9 - Mavzu. Neft va gaz qazib olish jihozlari tasnifi. Neft va gaz qazib olish uchun jihozlari va ularning tasnifi. Qatlam bosimiga qarshi tizimlar jihozlari. Neft va gazni yig'ish va tayyorlash uchun jihozlari. Quduqlarni ta'mirlash va qatlama ta'sir qilish hamda quduq tubi zonasiga ishlav berish uchun jihozlari. 10 - Mavzu. Neft va gaz quduqlarini ishlatish uchun jihozlari. Favvora quduqlarida qo'llaniladigan jihozlari sxemasi va tarkibi. Favvora armaturasi va monifold. Favvora armaturasi zulfimlari va rostlovchi quurilmalari. Nasos - kompressor quvurlari. Quduq zichlamalari (pakerlar), ularning vazifasi va tasnifi. 11 - Mavzu. Neft quduqlarini mexanizatsiyalashgan usulda ishlatish. Quduqlarni shtangali va shtangasiz nasoslar yordamida ishlatish jihozlari. Shtangali chuqurlik nasoslarini ishlatish prinsipi, tuzilishi, parametrlari. Quduqlarni gazlift usulida ishlatish uchun jihozlari. 12 - Mavzu. Neftni dastlabki tayyorlash texnologiyalari va uskunalari to'g'risida umumiy ma'lumot. Neft xomashyosiga qo'yiladigan asosiy talablar va ularning sinflanishi. Neftni kon sharoitida tayyorlash texnologiyalari. Neftni kompleks tayyorlash quurilmasi. Neftni dastlabki tayyorlash texnologiyasida qo'llaniluvchi asosiy va yordamchi uskunalari. 13 - Mavzu. Gazni dastlabki tayyorlash texnologiyalari va uskunalari

to'g'risida umumiy ma'lumot.

Gaz xomashyosiga qo'yiladigan asosiy talablar va ularning sinlanishi. Gazni kon sharoitida tayyorlash texnologiyalari. Gazni dastlabki tayyorlash qurilmasi. Neftni dastlabki tayyorlash texnologiyasida qo'llaniluvchi asosiy va yordamchi uskunalar.

14 – Mavzu. Neftni tashish va uzatish jihozlari va mashinalari.

Neftni tashish va uzatish bo'yicha me'yoriy talablar. Neftni avtosesternalar orqali tashish. Neftni uzatishda qo'llaniladigan nasoslarni sinflanishi, tuzilishi va ishlash prinsiplari. Nasos stansiyalari to'g'risida umumiy ma'lumot.

15 – Mavzu. Gazni tashish va uzatish jihozlari va mashinalari.

Gazni tashish va uzatish bo'yicha me'yoriy talablar. Gazni quvurlar orqali tashish. Gazni uzatishda qo'llaniladigan kompressorlarni sinflanishi, tuzilishi va ishlash prinsiplari. Siqov kompressor stansiyalari to'g'risida umumiy ma'lumot.

16- Mavzu. Neft va gazni saqlash uchun sig'im idishlar va rezervuarlar.

Sig'im idishlar va rezervuarlarni sinlanishi, tuzilishi va ishlash prinsipi to'g'risida umumiy ma'lumot. Neft saqlovchi sig'im idishlar va rezervuarlar to'g'risida umumiy ma'lumot. Gazni saqlovchi sig'im idishlar va rezervuarlar to'g'risida umumiy ma'lumot.

4 – Modul. Neft va gaz qayta ishlash texnologiyasi va uskunalari.

17 – Mavzu. Neftni qayta ishlash texnologiyasi va uskunalari.

Neftni qayta ishlash jarayonlari texnologiyalari. Neftni qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan asosiy uskunalar. Neftni qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan yordamchi uskunalar.

18 – Mavzu. Gazni qayta ishlash texnologiyalari va uskunalari.

Gazni qayta ishlash jarayonlari texnologiyalari. Gazni qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan asosiy uskunalar. Gazni qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan yordamchi uskunalar.

19 – Mavzu. Neftni kimyoviy qayta ishlash jarayoni va uskunalari.

Neftni kimyoviy qayta ishlash jarayonlari va texnologiyalari. Neftni kimyoviy qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan asosiy uskunalar. Neftni kimyoviy qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan yordamchi uskunalar.

20 – Mavzu. Gazni kimyoviy qayta ishlash jarayonlari va uskunalari.

Gazni kimyoviy qayta ishlash jarayonlari va texnologiyalari. Gazni kimyoviy qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan asosiy uskunalar. Gazni kimyoviy qayta ishlash texnologiyalarida qo'llaniladigan yordamchi uskunalar.

2.3. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun qo'yidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Neft va gaz sohasi korxonalar turlari va faoliyatlarini o'rganish.
2. Yerning tuzilishi va strukturasini o'rganish.
3. Neft va gazni hosil bo'lish nazariyasini o'rganish.
4. Neft va gaz konlarini geologik tasnifi.
5. Neftning tarkibi va xossalarni o'rganish.
6. Gazning tarkibi va xossalarni o'rganish.
7. Quduq profili va konstruksiyasini o'rganish.
8. Burg'ilash minorasini turlari va tuzilishi va vazifasini o'rganish.
9. Ko'tarish mexanizmlari. Tal tizimini tamlash va uning hisobi.
10. Favvora armaturasi konstruksiyalari va uni tashkil etuvchi elementlar.

11. Shtangali chuqurlik nasoslari yer osti va usti jihozlari.

12. Neftni kompleks tayyorlash jarayoni va unda qo'llaniladigan uskunalarni o'rganish

13. Gazni dastlabki tayyorlash jarayonlari va uskunalarni o'rganish.

14. Neft va gaz xomashosi va mahsulotlarini uzatishda qo'llaniladigan quvur uzatmalarni o'rganish.

15. Neft xomashyosi va mahsulotlarini uzatishda qo'llaniladigan nasoslarni tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.

16. Gaz xomashyosi va mahsulotlarini uzatishda qo'llaniladigan nasoslarni tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.

17. Neft va gazni saqlash idishlari va rezervarlarni o'rganish.

18. Neftni elektr suvsizlantirish qurilmasini o'rganish.

19. Neftni fraksiyalarga ajratish jarayoni va uskunasini o'rganish.

20. Gazni qayta ishlashda qo'llaniladigan asosiy uskunalarni o'rganish.

21. Gazni qayta ishlashda qo'llaniladigan yordamchi uskunalarni o'rganish.

22. Neftni kimyoviy qayta ishlash jarayoni va asosiy uskunalarni o'rganish.

23. Gazni kimyoviy qayta ishlash jarayoni va asosiy uskunalarni o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

2.4. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fan bo'yicha laboratoriya mashg'uloti namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

2.5. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi) namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

2.6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Neft va gaz paydo bo'lish nazariyasi ilmiy asoslarini tadqiq qilish.

2. Neft va gazning sanoatdagi o'rni.

3. Tog'jinlarning hosil bo'lishi.

4. Neft va gaz mashina jihozlari haqida umumiy tushuncha.

5. Neft va gaz uyumlari turlari.

6. Neft va gazlarni qidirish usullari.

7. Neft va gazni izlov-qidiruv bosqichlari.

8. O'zbekistonning neft va gaz hududlari.

9. Neft konlarini ishlatish usullari va texnologiyalari.

10. Neftning tarkibi va xossalari.

11. Tabiiy gazning tarkibi va xossalari.

12. Gaz kondensati va uning xossalari.

13. Neft va gaz quduqlarining maqsadi bo'yicha turlari.

14. Neft va gaz quduqlarining profilini bo'yicha turlari.

15. Gorizontal quduqni profilini o'rganish.

16. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash usullari.

17. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayoni.

18. Burg'ilarning turlari va ularning qo'llanilishi.

<p>19. Quduqlardan kern olish. Kern oluvchi va ko'taruvchi uskunalar. 20. Neft va gaz quduqlarini ishlatish usullari. 21. Gaz konlarini ishlatish usullari. 22. Neft konlarida neft olishni oshirish usullari. 23. Favvora armaturasi konstruksiyalari. 24. Tebratma dastgox tuzilishi va ishlash prinsipi. 25. Plunjer juftligi tuzilishi va ishlash prinsipi. 26. Neft saqlash idishlari. 27. Neft tindirgichlar vazifasi va konstruksiyalari. 28. Neftgaz separatorlari. 29. Vertikal gaz separatorlari. 30. Absorberlar va ularning turlari. 31. Rektifikatsion kolonnalar vazifalari. 32. O'zbekistonda neft va gaz sanoatining rivojlanishi tarixi. 33. O'zbekistonda gazkimyo sanoatining vujudga kelishi va istiqbollari. 34. Neftni qayta ishlash orqali olinadigan mahsulotlar. 35. Rezervuarlar, ularning turlari va tuzilishi.</p>	<p>3. Fanni o'rganishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) - ma'lumotlarni qabul qilib olish, tahlil qilish, umumlashtirish, o'z oldiga maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlash; - hamkasblari bilan birgalikda ishlarni tashkil etish (koooperatsiya), jamoada birga ishlashga tayyor bo'lish; - o'z saviyasini yuksaltirishga, o'zining malakasi va mahoratini oshirishga intilish; - to'plagan tajribalarini tanqidiy mulohaza qilish, zaruriy hollarda o'zining kasbiy faoliyati yo'naltirishini o'zgartirish; - zamonaviy ta'lim va informatsion texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash; - ma'lumotlarni olish, saqlash va ularga ishlov berish asosiy metodlari va vositalarini yaxshi bilish, ma'lumotlarni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash; - amaliy faoliyatida ijodiy yondoshuvni qo'llash, nazariya va amaliyotni birgalikda qo'shib olib borish. Fanni o'zlashtirishlari natijasida talabalar quyidagi ta'lim natijalarini namoyish qilishlari kerak: talaba bilishi kerak: - bitiruvchining oldida turgan vazifalar haqida; bitiruvchining egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalar, bilimlar va mahoratlar to'g'risida umumiy ma'lumotlarni; - yerning tashqi qattiq qobiqlari, tashqi litosfera qismlari shakllari, o'lchamlari va strukturalari to'g'risida umumiy ma'lumotlarni; - resurslar, zahiralari va ularning tasniflari to'g'risida umumiy ma'lumotlarni; - tutqichlarning asosiy turlari, iyuumlarning hosil bo'lishi tamoyillari, O'zbekistonning asosiy neftgazgeologik hududlarini; - quduqlarning ahamiyati va konstruksiyalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar umumiy ma'lumotlarni; - asosiy kompleks jihozlarning vazifalari va tuzilishlari haqida umumiy</p>
--	--

<p>ma'lumotlarni; - o'qimga qarshi komplekslar jihozlarning vazifalari, tuzilishi va tarkibi to'g'risida umumiy ma'lumotlarni; - mahsulotlarni quduqdan yer sirtiga ko'tarib chiqarish, ularni yig'ish va tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan jihozlarning vazifalari va ishlash prinsiplari va tuzilishi to'g'risida umumiy ma'lumotlarni. talaba egallashi kerak: - burg'ilash ishlarni bajarish uchun zaruriy komplekslarni aniqlashni; - turlari neft-gaz konlari jihozlari konstruksiyalari tahlilini; - neft va gazni qayta ishlashda zaruriy komplekslarni aniqlashni; talaba bilimiga ega bo'lishi kerak: - neft va gaz konlarini qidirishning geologik metodlari va usullari haqida; - neft va gaz quduqlarini burg'ilash metodlari haqida; - neft qazib olishning turli mexanizatsiyalashgan usullari haqida; - neft va gazni qayta ishlashning turli usullari haqida. - neft va gazni qayta ishlashda qo'llaniladigan asosiy jihozlar haqida.</p>	<p>4. Ta'lim texnologiyalari va metodlari - informatsion-rivojlantiruvchi texnologiyalar, bilimlar tizimini shakllantirishga, yodda saqlash va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan. Ma'ruzalarni tashkil etish va o'qish hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodlari, sohaga tegishli adabiyotlar va davriy nashrlarni mustaqil o'rganish, bilimlarni mustaqil ravishda boyitish uchun zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llash, shu jumladan axborotlarning texnik va elektron vositalaridan foydalanish, internet resurslariga murojaat qilish; - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni mobaynida ta'lim oluvchilarning turli xildagi qobiliyatlarini hisobga olishni ta'minlovchi, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlovchi, o'quv jarayonida ta'lim oluvchining faolligini rivojlantiruvchi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'qituvchi va talabning o'zaro individual tezkor-so'rov muloqotida, individual uyga berilgan topshiriqlarni bajarishlarida, o'ta murakkab va munozarali masalalarni yechishlarda, haftalik maslahatlar davomida amalga oshiriladi. O'quv jarayonini tashkil etishda faol va interaktiv ta'lim metodlari: dialog, suhbat, guruhlarda va kichik guruhchalarda ishlash kabilardan foydalaniladi. Ma'ruzalarni o'qishda multimediyaga texnologiyalarini qo'llash va elektron modulli majmualardan foydalanish nazarda tutiladi. Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlashlari institut axborot-resurs markazlari, o'quv zalari, Internet tarmog'i resurslari va institut lokal tarmoqlari resurslaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tishda texnologik qurilmalarning mavjud maketlaridan, texnologik qurilma, apparat va jihozlarning namunalaridan va boshqa turdagi yig'ima birliklar tuzilishi, ishlash prinsiplarini o'rganish bilan bir qatorda ularning mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlash va ishlash samaradorliklarini o'rganish bo'yicha misol va masalalar yechiladi. Auditoriya mashg'ulotlari ma'ruza shaklida (30 soat) PK va videoproektorlardan foydalangan holda, amaliy mashg'ulotlar (30 soat) "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari xonalarida, hamda institut o'quv poligonida o'tirilgan</p>
--	--

<p>burg'lash va neft-gaz konlari jihozlaridan, laboratoriya stendlaridan, maketlardan, qirqimli modellardan, asl namunalardan foydalaniladi.</p> <p>Talabalarning mustaqil ta'limi (60 soat) amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik, mustaqil ta'lim bo'yicha mavzularni o'zlashtirishlari kabilarni nazarda tutadi. Mustaqil ishlar nazorati hamda uning bajarilishi va rasmiylashtirishlar bo'yicha o'qituvchining yordami maslahatlar shaklida olib boriladi.</p> <p>Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.</p> <p>O'zlashtirishning joriy nazorati uchun baholash uchun – uchta oraliq (chegaraviy) nazorat, nazoratlar test usulida 5, 10, 15 haftalarda o'tkaziladi. Yakuniy nazorat bo'yicha o'quv jarayoni jadvaliga mos ravishda fanning barcha bo'limlaridan test topshiradi. talaba fanni semestr mobaynida o'zlashtirishi natijasida 4 kredit to'playdi.</p>	<p>6.1. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Z.Salimov. Neft va gazni qayta ishlash jarayonlari va uskunalari. – T.: «Aloqachi», 2010, 508 bet. 2. Agzamov A.X., Hayitov O.G'. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish. O'quv qo'llanma. –T.: TDTU, 2004. 3. Agzamov A.X., Hayitov G'.O., Akramov B.Sh. Yuqori qovushqoqli neft konlari zaxiralardan samarali foydalanish muammolari. – TDTU, ToshDTU xabarlar, 2001. 4. Akramov B.SH., Sidiqxo'jayev R.K. Neft va gaz ishi asoslari. –T.: TDTU, 1999. 5. Akramov B.SH., Sidiqxo'jayev R.K. Neft va gaz quduqlarini ishlatish. Darslik. –T.: TDTU, 2002. 6. Yuldashev.T.R., Mirzayev.E.S., Shonazarov.E.B., Samadov.A.X. "Neft va gaz quduqlarini burg'lash texnologiyasi va texnikasi" fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. "Voris" nashriyoti, 2020 yil. 380 b. 7. J.T.Nurmatov "Neft va gazni izlash hamda qidirishdagi jihozlar" fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. "Intellekt" nashriyoti, 2023 yil. 214 b. 8. J.T.Nurmatov., A.X.Samadov., I.E.Abdiraximov., A.I.Tog'ayev., A.T.Kurbanov., M.X.Samadova., "Neft va gaz konlari asoslari" fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. "Intellekt" nashriyoti, 2023 yil. 216 b. 9. Samadov.A.X. "Neft va gaz quduqlarini burg'lash texnologiyasi va texnikasi" fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. "Voris" nashriyoti, 2023 yil. 340 b. <p>6.2. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizomi va shaxsiy
---	---

<p>javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 y., 16 yanvar, №11.</p> <ol style="list-style-type: none"> 11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017 –46 b. 12. J.T.Nurmatov., A.X.Samadov "Neft va gaz konlari asoslari" fanidan o'quv uslubiy majmua. 2022 yil. 688 b. 13. F.A.Salohiddinov., A.X.Samadov "Neft va gaz kimyosi va fizikasi" fanidan o'quv uslubiy majmua. 2022 yil. 208 b. 14. A.X.Samadov "Nasos va kompressor stansiyalari va ulardan foydalanish" fanidan o'quv uslubiy majmua. 2022 yil. 380 b. 15. J.T.Nurmatov., A.X.Samadov "Neft va gazni izlash hamda qidirishdagi jihozlar" fanidan" o'quv uslubiy majmua. 2023 yil. 552 b. 16. T.R.Yuldashev, J.T.Nurmatov., Samadov.A.X. "Neft va gaz quduqlarini burg'lash" fanidan o'quv uslubiy majmua. 2019 yil. 648 b. <p>6.3. Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 17. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 18. www.geologiya.ru 19. www.ziyounet.uz 20. http://www.oilandgaz.com 21. https://kurganbur45.ru 22. https://burttehresurs.ru 23. https://stroy-technics.ru 24. https://moyaskvazhina.ru 25. www.sekretynb.ru/bentoniit.php 26. http://www.edu.uz <p>Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>	<p>Fan (modul) uchun ma'sul:</p> <p>Buronov Firdavs Eshbo'riyevich - QarMII, "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasini mudiri, t.f.f.d., dotsent.</p> <p>Raximov G'anisher Baxtiyorovich - QarMII, "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasini dotsenti, t.f.f.d.</p> <p>Nurmatov Jaxongir Togaymuradovich - QarMII, "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasini dotsenti v.b.</p> <p>Taqrizchilar:</p> <p>Djurayeva Gulnora Xurramovna – QarMII, NGF, "Texnologik mashinalar va jihozlar" dotsenti, t.f.n.</p> <p>Abduraxmonov Juraqul Bobomurodovich – "Qashqadaryo parmalash ishlari" AJ, bosh geologi.</p>
--	--